**Abstract:** This article examines the scientific and methodological foundations for using database technologies, monitoring systems, educational analytics, indicators, and metrics in the digital analysis of stakeholder activities within inclusive education and develops a corresponding competency-formation model for future special education teachers. Systemic, competency-based, and activity-based approaches were applied within the Data-Driven Decision Making concept, together with database design, a pedagogical experiment, expert evaluation, regression analysis, and structural equation modeling (SEM). A database architecture and monitoring algorithm supporting data collection, storage, processing, and visualization were proposed; an integral Inclusive Activity Efficiency Index (IAEI) was developed; a statistically significant ($p<0.05$) growth in competency was confirmed in the experimental group. The findings contribute to improving the quality of inclusive education, monitoring individual educational trajectories, and supporting data-driven pedagogical decision-making.

**Key words:** inclusive education, digital analysis, database, monitoring system, educational analytics, indicator, metric, Learning Analytics, special education, digital transformation.

**Аннотация:** В статье рассматриваются научно-методические основы использования технологий баз данных, систем мониторинга, образовательной аналитики, индикаторов и метрик при цифровом анализе деятельности субъектов инклюзивного образования, а также разрабатывается модель формирования соответствующей компетентности у будущих специальных педагогов. Применены системный, компетентностный и деятельностный подходы в рамках концепции Data-Driven Decision Making, а также проектирование базы данных, педагогический эксперимент, экспертная оценка, регрессионный анализ и моделирование структурными уравнениями (SEM). Предложены архитектура базы данных и алгоритм мониторинга, обеспечивающие сбор, хранение, обработку и визуализацию образовательных данных; разработан интегральный показатель Inclusive Activity Efficiency Index (IAEI); статистически подтверждён ($p<0,05$) рост компетентности в экспериментальной группе. Результаты способствуют повышению качества инклюзивного образования, мониторингу индивидуальных образовательных траекторий и принятию решений на основе данных.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, цифровой анализ, база данных, система мониторинга, образовательная аналитика, индикатор, метрика, Learning Analytics, специальная педагогика, цифровая трансформация.

## KIRISH

So'nggi yillarda jahonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. UNESCO, UNICEF, OECD hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida barcha ta'lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlarni yaratish, sifatli ta'limni ta'minlash va inklyuziv muhitni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimiga ham chuqur kirib kelmoqda: elektron ta'lim platformalari, Learning Management System (LMS), Student Information System (SIS), sun'iy intellekt va ta'lim analitikasi vositalari o'quv jarayonining barcha bosqichlarini monitoring qilish imkoniyatini yaratmoqda.

Natijada pedagogik jarayonlarni intuitiv emas, balki ma'lumotlarga asoslangan boshqarish (Data-Driven Decision Making) konsepsiyasi shakllanmoqda. Inklyuziv ta'lim sharoitida ma'lumotlarning hajmi va murakkabligi yanada ortadi, chunki bu yerda faqat o'quvchining akademik natijalari emas, balki uning psixologik rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi, individual ta'lim dasturining bajarilishi, ota-onalar bilan hamkorlik, maxsus pedagog, psixolog, logoped va boshqa subyektlarning faoliyati ham uzluksiz monitoring qilinishi zarur. Bunday ko'p qatlamli ko'rsatkichlarni an'anaviy usullar yordamida boshqarish qiyin bo'lib, zamonaviy ma'lumotlar bazasi texnologiyalarini joriy etishni taqozo etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim analitikasi (Learning Analytics) pedagogika va axborot texnologiyalari kesishgan nuqtada shakllangan istiqbolli yo'nalish sifatida e'tirof etilgan:

Siemens va Long (2011) uni ta'lim jarayonida hosil bo'ladigan ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va vizualizatsiya qilish orqali o'qitish sifatini oshirishga xizmat qiluvchi tizim sifatida tavsiflaydilar, Long va Siemens (2011) esa uni ta'lim muassasasining strategik boshqaruv mexanizmi sifatida ham baholaydilar [1].

Florian (2015) inklyuziv pedagogika konsepsiyasida ta'lim sifatini faqat yakuniy baholar bilan emas, balki o'quvchining ijtimoiy integratsiyasi, sinfdagi faolligi va individual rivojlanish dinamikasi orqali ham baholash zarurligini asoslab bergan [2].

UNESCO (2020) ekspertlari inklyuziv ta'lim monitoringida indikator va metrikalarga asoslangan boshqaruv modelini, shuningdek, sifatni akademik natijalardan tashqari muhit qulayligi, ijtimoiy integratsiya va teng ishtirok orqali baholashni tavsiya etadi [3].

Baker va Inventado (2014) esa ta'lim ma'lumotlarini qazib olish (Educational Data Mining) texnologiyalari yordamida o'zlashtirish darajasini prognoz qilish va xavf guruhidagi o'quvchilarni erta aniqlash imkoniyatlarini ko'rsatib berganlar [4].

O'zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta'limni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va raqamli ta'lim strategiyalari qabul qilingan bo'lib, ular ta'lim jarayonlarini axborot texnologiyalari asosida takomillashtirishni nazarda tutadi [7, 8, 9].

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda inklyuziv ta'limni rivojlantirishga oid qator izlanishlar amalga oshirilgan bo'lsada, ularning aksariyatida pedagogik, psixologik yoki uslubiy jihatlar yoritilgan, biroq inklyuziv ta'lim subyektlari faoliyatini ma'lumotlar bazasi texnologiyalari, raqamli monitoring, indikatorlar tizimi, Learning Analytics hamda qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlari (Decision Support System) asosida kompleks tahlil qilish metodikasi, xususan, bo'lajak maxsus pedagoglarni shunga o'rgatish modeli hanuzgacha yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Mazkur maqolaning maqsadi – bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'lim subyektlari faoliyatini raqamli tahlil qilishga o'rgatish metodikasini ma'lumotlar bazasi va monitoring tizimlari asosida takomillashtirish, buning uchun mos ma'lumotlar bazasi modeli, indikator-metrika tizimi va faoliyat samaradorligini kompleks baholovchi integral ko'rsatkichni ishlab chiqish hamda ularning amaliy samaradorligini pedagogik eksperiment orqali sinashdan iborat.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

**Metodologik yondashuvlar.** Tadqiqotning metodologik asosini Data-Driven Decision Making (DDDM) konsepsiyasi doirasida integratsiyalashgan quyidagi yondashuv va konsepsiyalar tashkil etdi:

- tizimli yondashuv;
- kompetensiyaviy yondashuv;
- faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv;
- raqamli transformatsiya konsepsiyasi;
- Learning Analytics texnologiyasi;

- Universal Design for Learning (UDL);
- Evidence-Based Education.

**Tadqiqot bazasi va ishtirokchilar.** Eksperimental tadqiqot Qo'qon davlat universiteti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti va Andijon davlat pedagogika institutining "Maxsus pedagogika" ta'lim yo'nalishi talabalari ishtirokida, tajriba va nazorat guruhlariga ajratilgan holda amalga oshirildi.

Tadqiqot davomida bo'lajak maxsus pedagoglarning inklyuziv ta'lim subyektlari faoliyatini raqamli tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishga oid ma'lumotlar yig'ildi.

Ma'lumot yig'ish metodlari ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish; kuzatish; pedagogik eksperiment; ekspert baholash; anketa va testlar.

**Ishlab chiqilgan tadqiqot instrumentlari.** Tadqiqot jarayonida quyidagi metodik va texnik instrumentlar loyihalashtirildi; ularning tarkibi va tuzilishi 3-bo'limda (Natijalar) batafsil bayon etiladi:

- inklyuziv ta'lim subyektlari faoliyatini kuzatuvchi relyatsion ma'lumotlar bazasi modeli;
- uch pog'onali (three-tier) tizim arxitekturasi;
- to'rt yo'nalishli indikatorlar va metrikalar tizimi;
- Inclusive Activity Efficiency Index (IAEI) integral ko'rsatkichi;
- Learning Analytics jarayon modeli;
- ko'p omilli regressiya va strukturaviy tenglamalar (SEM) modellari.

**Statistik tahlil metodlari.** Tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi farqning ishonchliligini aniqlash uchun Student t-mezoni va Fisher F-mezonidan, o'zgaruvchilar orasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun ko'p omilli regressiya tahlili va strukturaviy tenglamalarni modellashtirish (SEM)dan foydalanildi. Statistik ishonchlilik chegarasi $p<0,05$ darajasida belgilandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

**Ma'lumotlar bazasi modeli.** Inklyuziv ta'lim monitoringining samaradorligi ma'lumotlarning to'liq, ishonchli va tizimli saqlanishiga bog'liq. Shu sababli tadqiqot doirasida inklyuziv ta'lim subyektlari faoliyatini monitoring qilishga mo'ljallangan relyatsion ma'lumotlar bazasi modeli ishlab chiqildi. Ma'lumotlar bazasining asosiy vazifalari – ta'lim subyektlari haqidagi ma'lumotlarni yagona bazada jamlash, monitoring jarayonini avtomatlashtirish, indikatorlarni avtomatik hisoblash, hisobotlarni shakllantirish va ta'lim analitikasi uchun ma'lumotlarni tayyorlashdan iborat. Ishlab chiqilgan ma'lumotlar bazasining asosiy obyektlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: **Inklyuziv ta'lim monitoringi ma'lumotlar bazasi obyektlari**

| Jadval nomi | Tavsifi |
|---|---|
| **Students** | Talabalar ma'lumotlari |
| **Teachers** | Professor-o'qituvchilar |
| **InclusiveSubjects** | Inklyuziv fanlar |
| **Competencies** | Kompetensiyalar |
| **Indicators** | Indikatorlar |
| **Metrics** | Metrikalar |
| **Monitoring** | Monitoring natijalari |
| **Assessment** | Baholash natijalari |
| **Analytics** | Analitik hisobotlar |
| **Dashboard** | Vizual monitoring |

Mazkur model Third Normal Form (3NF) talablariga mos ravishda normallashtirilgan bo'lib, ma'lumotlarning takrorlanishini kamaytiradi va ularning yaxlitligini ta'minlaydi. Tizim arxitekturasi. Ma'lumotlar bazasi asosida uch pog'onali (Three-tier) tizim arxitekturasi taklif qilindi (2-jadval).

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

2-jadval: **Tizimning uch pog'onali arxitekturasi**

| Qatlam | Tarkibi (komponentlar) |
|---|---|
| **Foydalanuvchi qatlami** | Administrator, o'qituvchi, talaba, psixolog, defektolog, ota-ona, ta'lim muassasasi rahbari |
| **Ilova qatlami** | Monitoring moduli, baholash moduli, Learning Analytics moduli, dashboard moduli, hisobotlar moduli, sun'iy intellekt yordamchi moduli (istiqbolda rivojlantirish uchun) |
| **Ma'lumotlar bazasi qatlami** | PostgreSQL, MySQL, Oracle Database |

Mazkur arxitektura katta hajmdagi pedagogik ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash hamda foydalanuvchilarga real vaqt rejimida vizual hisobotlarni taqdim etish imkonini beradi. Monitoring jarayonining konseptual modeli. Ma'lumotlar bazasi, indikatorlar tizimi va IAEI ko'rsatkichini yagona uzluksiz oqimga bog'lovchi monitoring jarayonining konseptual modeli (algoritmi) ishlab chiqildi. Mazkur model orqali inklyuziv ta'lim subyektlari faoliyati uzluksiz monitoring qilinadi va ta'lim sifatini oshirish bo'yicha tezkor boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi ta'minlanadi.




1-rasm: **Uzluksiz monitoring sikli konseptual model grafik chizmasi**

**Indikatorlar va metrikalar tizimi.** Inklyuziv ta'lim samaradorligini baholash ko'p omilli va ko'p darajali tahlilni talab etadi. Shu sababli tadqiqot doirasida subyektlar faoliyatini kompleks baholash imkonini beruvchi indikatorlar va metrikalar tizimi ishlab chiqildi. Indikatorlar to'rt asosiy yo'nalishga ajratildi:

1. Akademik indikatorlar – o'quv natijalari, topshiriqlarni bajarish sifati, baholar dinamikasi;
2. Ijtimoiy indikatorlar – guruhdagi hamkorlik, kommunikativ faollik, tengdoshlar bilan o'zaro munosabat;
3. Psixologik indikatorlar – motivatsiya, moslashuv, emotsional barqarorlik;
4. Raqamli kompetensiya indikatorlari – axborot texnologiyalaridan foydalanish, ma'lumotlarni tahlil qilish, elektron platformalarda ishlash.

Har bir indikator bir nechta metrikalar orqali baholanadi (3-jadval).

3-jadval: **Inklyuziv ta'lim monitoringi indikatorlari va metrikalari**

| Indikator | Metrika | Baholash usuli |
|---|---|---|
| **Akademik faollik** | O'zlashtirish foizi | Test, amaliy topshiriq |
| **Ishtirok darajasi** | Darsda qatnashish ko'rsatkichi | Elektron jurnal |
| **Ijtimoiy integratsiya** | Hamkorlik indeksi | Kuzatuv va so'rovnoma |
| **Raqamli kompetensiya** | LMS faolligi | Platforma loglari |
| **Mustaqil ta'lim** | Mustaqil topshiriqlar soni | Portfolio |
| **Individual rivojlanish** | ITR bajarilish darajasi | Monitoring kartasi |

Mazkur tizim pedagogga nafaqat talabalar bilimini, balki ularning inklyuziv ta'lim jarayonidagi faol ishtirokini ham baholash imkonini beradi. IAEI (Inclusive Activity Efficiency Index) integral koʻrsatkichi. Tadqiqotning asosiy natijalaridan biri sifatida Inclusive Activity Efficiency Index (IAEI) modeli ishlab chiqildi – bu inklyuziv ta'lim subyektlari faoliyati samaradorligini kompleks baholovchi integral koʻrsatkich boʻlib, bir nechta indikatorlarning vaznli yigʻindisi asosida hisoblanadi:

$$\mathbf{IAEI = \Sigma^{n}_{i=1} (\omega_i \times I_i)}$$

Bu yerda: $I_i$ – indikator qiymati; $\omega_i$ – indikatorning vazn koeffitsiyenti; n – indikatorlar soni. Mazkur indeks orqali talabaning umumiy rivojlanish darajasi, inklyuziv muhitga moslashuvi, pedagogik yordam samaradorligi va subyektlar oʻrtasidagi hamkorlik darajasi kompleks baholanadi. IAEI modeli monitoring tizimiga integratsiya qilinib, real vaqt rejimida avtomatik hisoblanadigan qilib loyihalashtirildi.

**Learning Analytics jarayon modeli.** Inklyuziv ta'lim monitoringining asosiy komponenti sifatida Learning Analytics texnologiyasiga asoslangan jarayon modeli ishlab chiqildi. U quyidagi izchil bosqichlarni oʻz ichiga oladi:

1) ma'lumotlarni yigʻish;
2) ma'lumotlarni tozalash;
3) ma'lumotlarni integratsiyalash;
4) statistik tahlil;
5) vizualizatsiya;
6) prognozlash;
7) pedagogik qaror qabul qilish.

Mazkur model oʻqituvchilarga talabalar rivojlanishidagi muammolarni erta aniqlash va individual pedagogik yordam koʻrsatish imkonini beradi. Regressiya tahlili natijalari. Inklyuziv ta'lim samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida koʻp omilli regressiya modeli qoʻllanildi:

$$\mathbf{IAEI = \beta_0 + \beta_1 P + \beta_2 A + \beta_3 SI + \beta_4 DC + \beta_5 TM + \varepsilon}$$

Bu yerda: P – Participation (ishtirok darajasi); A – Attendance (davomat); SI – Social Integration (ijtimoiy integratsiya); DC – Digital Competence (raqamli kompetensiya); TM – Teacher Monitoring (oʻqituvchi monitoringi); $\beta_0$ – erkin had; $\beta_1$–$\beta_5$ – regressiya koeffitsiyentlari; ε – xatolik hadi. Tahlil natijalari shuni koʻrsatdiki, akademik natijalarga eng katta ta'sir koʻrsatuvchi omillar darsdagi faollik (P) va ijtimoiy integratsiya (SI) boʻldi. Bu inklyuziv muhitda hamkorlikka asoslangan pedagogik yondashuvning muhimligini tasdiqlaydi.

**SEM tahlili natijalari.** Koʻp omilli bogʻliqliklarni aniqlash maqsadida strukturaviy tenglamalar modeli (Structural Equation Modeling – SEM) qoʻllanildi. Model quyidagi latent oʻzgaruvchilarni oʻz ichiga oldi: raqamli kompetensiya, oʻquv motivatsiyasi, ijtimoiy moslashuv, oʻqituvchi qoʻllab-quvvatlashi, inklyuziv muhit sifati va akademik natija. SEM tahlili natijasida quyidagi bogʻlanishlar aniqlandi:

1. Raqamli kompetensiya → Learning Analytics sifati;
2. Learning Analytics → pedagogik qarorlar;
3. Pedagogik qarorlar → akademik natijalar;
4. Ijtimoiy integratsiya → motivatsiya → akademik muvaffaqiyat.

Bu natijalar bevosita va bilvosita ta'sirlarni bir vaqtning oʻzida baholash imkonini berdi. Tajriba-sinov natijalari. Pedagogik tajriba-sinov ishlari davomida nazorat va tajriba guruhlarida boʻlajak maxsus pedagoglarning inklyuziv ta'lim subyektlari faoliyatini raqamli tahlil qilish kompetensiyasi baholandi. Natijalarning ishonchliligi Student t-mezoni va Fisher F-mezoni yordamida tekshirildi. Statistik tahlillar quyidagilarni koʻrsatdi:

- ajriba guruhida kognitiv kompetensiya sezilarli darajada oshdi;
- indikatorlarni tahlil qilish koʻnikmalari rivojlandi;
- ma'lumotlar bazasi bilan ishlash malakasi shakllandi;
- pedagogik monitoringni olib borish sifati yaxshilandi.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Hisob-kitoblar tajriba va nazorat guruhlari oʻrtasidagi farqning statistik jihatdan ishonchli ekanligini koʻrsatdi ($p<0{,}05$).

**Natijalarning adabiyotlar bilan qiyosiy tahlili.** Olingan natijalar bir qator xalqaro tadqiqotlar bilan uzviy bogʻliqdir. Xususan, tajriba guruhida qayd etilgan statistik jihatdan ishonchli oʻsish ($p<0{,}05$) Siemens va Long tomonidan ilgari surilgan maʼlumotlarga asoslangan pedagogik qarorlar samaradorligi haqidagi qarashlarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi [1].

Ishlab chiqilgan toʻrt yoʻnalishli indikatorlar tizimi Florian tavsiya etgan inklyuziv taʼlim sifatini nafaqat akademik, balki ijtimoiy va psixologik koʻrsatkichlar orqali ham baholash gʻoyasini operatsionallashtiradi [2].

IAEI integral koʻrsatkichi esa UNESCO ekspertlari tavsiya etgan indikator-metrikaga asoslangan bosh-qaruv modelining amaliy ifodasi sifatida qaralishi mumkin [3].

Learning Analytics jarayon modeli orqali taʼminlangan erta aniqlash imkoniyati Baker va Inventadoning Educational Data Mining borasidagi xulosalari bilan mos keladi [4].

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Yuqoridagi natijalar quyidagi ilmiy yangiliklarni asoslashga xizmat qiladi:

1) inklyuziv taʼlim subyektlari faoliyatini raqamli tahlil qilishga yoʻnaltirilgan maʼlumotlar bazasi va monitoring tizimining konseptual modeli birinchi marta ishlab chiqildi;
2) boʻlajak maxsus pedagoglarning raqamli tahlil kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi toʻrt yoʻnalishli indikatorlar va metrikalar tizimi taklif etildi;
3) inklyuziv taʼlim samaradorligini kompleks baholash uchun Inclusive Activity Efficiency Index (IAEI) integral koʻrsatkichi ishlab chiqildi;
4) maʼlumotlar bazasi, Learning Analytics va Dashboard texnologiyalarini integratsiyalovchi monitoring modeli yaratildi;
5) regressiya va strukturaviy tenglamalar modeli asosida inklyuziv taʼlim subyektlari faoliyatiga taʼsir etuvchi omillar – darsdagi faollik va ijtimoiy integratsiya – aniqlandi;
6) “Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qoʻllash” fanini oʻqitishda inklyuziv taʼlim subyektlari faoliyatini raqamli tahlil qilish metodikasi tajriba-sinov natijalari asosida takomillashtirildi.

**Amaliy ahamiyati.** Taklif etilgan monitoring tizimi quyidagi amaliy imkoniyatlarni taʼminlaydi:

- inklyuziv taʼlim subyektlari faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish;
- individual taʼlim trayektoriyalarini shakllantirish;
- indikator va metrikalarni avtomatik hisoblash;
- dashboard orqali vizual hisobotlarni taqdim etish;
- maʼlumotlarga asoslangan pedagogik qarorlarni qabul qilish;
- taʼlim sifati monitoringini avtomatlashtirish.

Natijalar oliy taʼlim muassasalarining “Maxsus pedagogika” yoʻnalishida, “Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qoʻllash” fanini oʻqitishda, inklyuziv taʼlim monitoring tizimlarini, elektron jurnal va LMS platformalarini takomillashtirishda, shuningdek, taʼlim boshqaruvi uchun analitik dashboardlar yaratishda qoʻllanilishi mumkin.

**Tadqiqotning cheklovlari.** Tadqiqot uch oliy taʼlim muassasasining “Maxsus pedagogika” yoʻnalishi talabalari namunasi bilan cheklangan. Natijalarni kengroq populyatsiyaga umumlashtirish, shuningdek, ularning statistik ishonchliligini yanada mustahkamlash uchun keyingi nashrlarda namuna hajmi (N), tavsif statistikasi (oʻrtacha qiymat, standart chetlanish) va aniq t/F qiymatlarini alohida jadvalda keltirish tavsiya etiladi.

## XULOSA

Inklyuziv taʼlim tizimida subyektlar faoliyatini samarali boshqarish va baholash zamonaviy axborot texnologiyalarini qoʻllashni talab etadi. Tadqiqot natijalari maʼlumotlar bazasi texnologiyalari, Learning Analytics, indikatorlar va metrikalar tizimi hamda monitoring platformalaridan foydalanishning boʻlajak maxsus pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirishdagi muhim ahamiyatini tasdiqladi. Taklif etilgan monitoring modeli taʼlim jarayonida hosil boʻladigan maʼlumotlarni yigʻish, saqlash, qayta ishlash va tahlil qilishning yagona mexanizmini yaratadi, bu esa pedagogik faoliyatning shaffofligini, taʼlim sifati monitoringining uzluksizligini va boshqaruv qarorlarining ilmiy asoslanganligini taʼminlaydi.

Regressiya tahlili va strukturaviy tenglamalar modeli yordamida inklyuziv taʼlim samaradorligiga taʼsir etuvchi asosiy omillar aniqlanib, ularning oʻzaro bogʻliqligi ilmiy jihatdan asoslandi; ishlab chiqilgan Inclusive Activity Efficiency Index (IAEI) modeli esa subyektlar faoliyatini kompleks baholash imkonini berdi. Kelgusida

mazkur tadqiqot natijalari sun’iy intellekt, Big Data va Predictive Analytics texnologiyalari bilan integratsiyalashgan holda yanada takomillashtirilishi mumkin. Bu esa inklyuziv ta’lim monitoringining yangi avlod axborot tizimlarini yaratish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Siemens, G., & Long, P. (2011). Penetrating the fog: Analytics in learning and education. EDUCAUSE Review, 46(5), 30–40.
2. Florian, L. (2015). Inclusive pedagogy: A transformative approach. Routledge.
3. UNESCO. (2020). Global education monitoring report 2020: Inclusion and education – All means all. UNESCO Publishing.
4. Baker, R. S., & Inventado, P. S. (2014). Educational data mining and learning analytics. In R. K. Sawyer (Ed.), The Cambridge handbook of the learning sciences (2nd ed., pp. 253–272). Cambridge University Press.
5. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2023). Education at a glance 2023: OECD indicators. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/e13bef63-en
6. U.S. Department of Education. (2024). 2024 National educational technology plan. U.S. Department of Education.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №8(1)**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.